Til – dil tarjimoni
O'zbek xalq maqoli

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

1991- yildan
chiqa boshlagan.

2017-yil. 5-son.

ISSN 2010-5584

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abdulla Qahhor tavalludining 110 yilligi



USHBU SONDA

Dolzarb mavzu
Adiblar xiyoboni – ilm va ma'rifat mehnobi
3-bet

Tahlil
Navoiy ijodida dunyo timsoli va talqinlari
30-bet

Adabiy taqvim
Dorilfunun ilhomlari
42-bet

Авторское слово
Сатуа
стр.51

Изучаем иностранные языки
Креативность и ее развитие при обучении английскому языку
стр.69

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ПРЕПОДАВАНИЕ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2017-yil. 5-son.

Bosh muharrir:
Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:
Baxtiyor DONIYOROV
Mamatqul JO'RAYEV
Shahnoza JO'RAYEVA
Islom ZOKIROV
Ulug'bek INOYATOV
Abduhamid MUXTOROV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Nizomiddin MAHMUDOV
Abdurahim NOSIROV
Nargiza RAHMONQULOVA
Hikmatilla RASHIDOV
Sirojiddin SAYYID
Ergash UMAROV

Jamoatchilik kengashi:
Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Lutfullo JO'RAYEV
Ehson TURDIQULOV
Valijon QODIROV

Sahifalovchilar:
Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:
Yo.ODILOV
L.QAHHOROVA

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Telefon: (0 371) 244-04-18, 244-04-15, 244-20-63, 244-26-89.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 10.05.2017-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84$^1/_8$. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasi. 10, 11 kegl. «O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh. Navoiy ko'chasi, 30.
Buyurtma №17-471Adadi 13400 nusxa.
Bahosi sotishilgan narxda.

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Baxtiyor Nazarov. Adiblar siyobori – ilm va ma'rifat mehrobi ... 3
Yulduz Mirzaahmedova. To'g'ri murojaat muloqotni mustahkamlaydi ... 5

DARS MUQADDAS

Zubayra Arinova. Transportda yurishni bilasizmi? ... 7
Gulnoza Usmonova. «Ilm istang, izingizdan ibrat yog'sin...» ... 9
Ma'mura Mavjutova, Shahnoza Mahkamova. Aql va farosat quyoshga o'xshar ... 11
Mohin Omarova. She'riyatimizning porloq yulduzi ... 13
Dilrabo Boboyorova. Komillikning qo'sh qanoti ... 15

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Sotvoldi Odilov. Taqqoslash usuli ... 18
Oydin Mo'minova. O'zbek tili darslarida modulli o'qitish texnologiyasidan foydalanish ... 19
Gulnoza Ahmedova. Nutqiy muloqot madaniyati ... 21
Gulnoza Turdiyeva. Badiiy asar tahlilida o'quvchilar faolligini oshirish usullari ... 22

TAHLIL

Laylo Sharipova. Yetuklik ilk qadamdan ma'lum ... 25
Hulkar G'aipova. Zamonaviy she'riyatda an'ana va novatorlik ... 27
Kavsar Turdiyeva. Bola qalbining ruhshunosi ... 28
Ibrohim Haqqul. Navoiy ijodida dunyo timsoli va talqinlari ... 30

TEACHING ENGLISH

Job Application ... 33
Excuse me! ... 34

TRENER MASHG'ULOTLARI

Nilufar Begibayeva. Writing task 3: introduction formula ... 35

METODIK TAVSIYA

Mahfuza Rahmonova. How to organize compare-contrast essays? ... 39
Parvina Omonova. Specific language of TV news programs ... 40
Dildora Xudoyorova. O'quvchi nutqini o'stirish usullari ... 41

ADABIY TAQVIM

Umarali Normatov. Dorilfunun ilhomlari ... 42

TADQIQOTLAR

Mamatqul Jo'rayev, Manzura Otajonova. Hozirgi o'zbek nasrida animalik mifologiya ... 46

АКТУАЛЬНОЕ СЛОВО ДНЯ

Дусмурод Джураев. Факторы формирования качества обучения в системе высшего образования ... 49

АВТОРСКОЕ СЛОВО

Юлия Мусурманова. Глагол ... 51

МЕТОДИКА. ОПЫТ

Руксора Салиева. Простые и сложные предложения ... 53

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Ибодулло Узаков, Шахзод Турсунов. Педагогические условия военно-патриотического воспитания студентов ... 55
Жуманазар Матякубов. Значимость языковых навыков для развития личности ... 57

СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Дилором Юлдашева. Выражение некоторых фразеологизмов в узбекском и английском языках, относящихся к профессиям ... 59
Шахноза Рахимова. О переводе на узбекский язык идиом с лексической единицей "mouth" ... 61

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ЗАМЕТКИ

Дилара Доспанова. Стилистическая характеристика существительных со значением лица в современном русском языке ... 63
Надежда Шакурбанова. Своеобразие онимической лексики в художественном тексте ... 65
Гузал Саидова. Языковая реакция на внеязыковые отношения объектов реального мира в романских языках ... 67

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

Екатерина Баяндурова. Креативность и ее развитие при обучении английскому языку ... 69
Гулчехра Турсунова. Изучение английских фразеологических единиц, обозначающих интеллектуальные способности ... 71

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Агата Осипова. Специфика названий художественных произведений ... 73

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Тимур Узбеков. Лингвистическая игра как фактор формирования знаний о языке ... 75

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Малохат Узакова. Художественный текст как лингводидактическая категория при изучении иностранных языков ... 77

ХРОНИКА

Мадина Билалова. Форум русистов Узбекистана ... 80

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI Я ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ПРЕПОДАВАНИЕ L ANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA va PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

Gulnoza AHMEDOVA,
Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari nomzodi

NUTQIY MULOQOT MADANIYATI
qanday yondashuv va tamoyillar asosida shakllantiriladi?

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 2–4-, 5–9-sinflarida, akademik litsey va kasb-hunar kollej o'quvchilarining o'zbek tilidagi nutqini o'stirish, muloqot madaniyatini shakllantirishda mashqlar tizimini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Buning uchun, birinchi navbatda, muayyan yondashuv va tamoyillarni belgilab olish lozim.

Dastlab mavjud lingvodidaktik asoslar (ko'p sonli yondashuvlar va tamoyillar) sirasidan quyidagi yondashuvlarni ko'rib chiqamiz: *kommunikativ yondashuv, faoliyatga asoslanganlik yondashuvi, o'qish orqali yondashuv, axborot texnologiyalari asosidagi yondashuv, jamoaga asoslangan yondashuv.*

Ma'lumki, muloqot odobiga doir qoidalar ham, dialogik shakldagi o'zaro so'zlashuv luqmalari ham, qolip-gaplar ham kommunikativ yondashuvga amal qilgan holda o'rganiladi.

Nutqiy muloqot madaniyatini o'rgatishda ***kommunikativ yondashuv*** ta'lim jarayonini bevosita kommunikatsiya – axborot almashinuvi asosiga qurish degan ma'noni anglatadi. Til o'qitishda shunchaki savol-javob mashqlari ham o'tkaziladi. Bu mashqlar real fikr almashuvdan yiroq. Lekin o'quvchilarning bir-biri bilan, qisqa fikr almashinuvi kengaygan sari suhbat kommunikativ nutq sifatlariga ega bo'ladi.

Faoliyatga asoslanganlik yondashuvi nutqiy muloqotni o'rgatishning tub mohiyatini ifodalaydi. Ma'lumki, nutqiy faoliyat so'zlash (gapirish), o'qish, nutqni tinglash va yozuv (yozma nutq) turlariga bo'linadi. Nutqiy muloqotni o'rgatishda so'zlash (gapirish) faoliyatigina tushuniladi. To'g'ri, o'qish orqali ham, nutqni tinglash yo'li bilan ham kommunikatsiya sodir bo'ladi, lekin ular, asosan, dialogik shakldagi nutqiy muloqotni ifodalamaydi. Nutqiy muloqot madaniyatini egallash jarayoni so'zlash (gapirish) faoliyatiga asoslangan taqdirdagina kutilgan natijani beradi. O'quvchilar bir-birlari bilan so'zlashmasdan, ya'ni nutqiy faoliyatda ishtirok etmasdan turib o'zbek tilini egallay olmaydilar. Ushbu jarayonda ular o'zbek tilini har tomonlama: ham o'zbekcha to'g'ri talaffuzni, ham jonli muloqot qoidalarini, ham faol til hodisalarini egallaydilar. Ayniqsa, darak, so'roq, buyruq, his-hayajon gaplarning turli-tuman ohang jilolari, undalmali, kiritmali gaplar, atov gaplarning talaffuzi faqat jonli so'zlashuv jarayonidagina o'zlashtiriladi.

O'qish orqali yondashuv deganda o'quvchilarning muloqot odobiga doir qoidalar bilan matnni o'qib ma'lumot olishlari, dialog namunalari bilan tanishishlari, qolip-gaplar lug'ati bilan ishlashlari nazarda tutiladi. Ushbu materiallar o'qishga qadar og'zaki taqdim etilishi mumkin. Lekin pirovardida vaqti-vaqti bilan o'qishga murojaat etiladi.

Jamoaga asoslanganlik yondashuvida, tabiiyki, dialogik shakldagi mashqlar («o'qituvchi va o'quvchi», «sotuvchi va xaridor» dialoglari) kamida ikki o'quvchi o'rtasida tashkil etiladi. O'quv materiallari taqdimotida ana shu holat nazarda tutiladi: juftliklar tanlanadi, ularning o'zaro so'zlashuvi uyushtiriladi va hokazo.

Dialogik nutq o'stirishning murakkab tomoni shundaki, o'quvchilar o'zbek tilida mustaqil ravishda gap tuzib muloqotga kira olmasalar, ta'limiy va tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirib bo'lmaydi. Ta'limiy unsurlar nutqiy mashqlarda ustuvor sanaladi. Shuning uchun yuqorida belgilab olingan yondashuvlar doirasida quyidagi (ko'plab tamoyillar orasidan tanlab olingan) eng muhim tamoyillarga asoslanish talab etiladi.

Rivojlantiruvchi ta'lim tamoyili dialogik nutq o'stirish jarayonini o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga tayanib, rejalashtirish va tashkil etishni o'z ichiga oladi. Masalan, o'quvchilar o'zbek tili darslarida 10 ta qolip-gapni o'zlashtirgan bo'lsalar, navbatdagi mashg'ulotda shundan oshirishga intilishlari tabiiy. Bu holat rivojlantiruvchi ta'lim doirasida yana quyidagi tamoyillarga amal qilishni taqozo qiladi:

– o'quvchilarning turli tipdagi gaplarni mustaqil tuza olish malaka darajasini hisobga olish;

– o'quvchilarning so'z boyligi va til bilimi, xususan, qolip-gaplarga doir bilimini nazarda tutish;

– o'quvchilarning dialogik nutqidagi xatolarni hisobga olish.

Rivojlantiruvchi ta'lim tamoyili yana shunda o'z ifodasini topadiki, dialog namunalari sinfdan sinfga (2–9-sinfgacha) ajratilgan mavzular doirasida leksik va grammatik materiallar, qolip-gaplar jihatidan, oddiydan murakkabga qarab kengayib, qamrovi ortib boradi, avvalgi mavzu, o'z navbatida, kichik mavzularga tarmoqlanadi, o'quvchilarning qaysi mavzularda qay darajada o'zaro so'zlasha olishini hisobga olib borish ham ta'limiy tadbirlar muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bu o'rinda o'quvchilarning o'zbek tilidan ***bilim darajasi, nutqidagi xatolarni hisobga olish tamoyillari*** asos qilib olinadi. Aniqroq qilib aytganda, mavzular asosidagi leksikaning o'rganilishi, gap tuzishga doir BKMlarning grammatik vositalar asosida izchil egallanib borishiga qaratiladi.

Rivojlantiruvchi ta'lim tamoyili kognitiv ta'limning eng muhim jihati sanaladi. O'quvchi ertaga bugungidan mustaqilroq bo'lishi, uning bilimi tobora boyib borishi, ko'nikmalari malakaga aylanishi, layoqat darajasi yanada ortishi ana shu tamoyilga asoslangan ta'lim xususiyati hisoblanadi.

Dastlabki hisobga olinishi kerak bo'lgan jihat bu – o'quvchilarning o'zbek tilida mustaqil ravishda gap tuzib, fikr bayon qila olish yoki fikr almasha bilishidir.

Ayrim maktablarning 9-sinfini bitirayotgan o'quvchilar o'zbek tilida bemalol gaplasha olsa, ayrimlari gap tuzishni uddalay olmaydilar. Ular *Bu nima (kim?) Isming nima? Sen nechanchi maktabda (sinfda) o'qiysan?* kabi savollargagina javob bera oladilar. Aslida, o'quvchilar nutqining o'sganlik darajasi u qaysi sinfda o'qiyotgan bo'lsa, shu sinfgacha o'rganilgan va o'rganilayotgan leksik, grammatik materiallar hajmi bilan belgilanadi, bular muloqotning ta'lim bosqichiga mos ravishda ilgarigi mavzuning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun asos bo'ladi. Demak, har bir sinfda o'quvchilar mustaqil ravishda tuza oladigan gap konstruksiyalari ham ta'lim mazmuniga ko'ra murakkablashib borishi lozim. Har bir sinfda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan so'z boyligi ham, grammatik materiallar ham dasturda ***mavzulylik tamoyili asosida*** ko'rsatiladi.

Nutqiy muloqot madaniyati, birinchi navbatda, o'zaro so'zlashish odobi bilan bog'lanadi. Shunday bo'lgach, o'zbek tilini o'qitishning bu jihati ***ta'lim va tarbiya birligi tamoyili***ga asoslanishni taqozo etadi. Sharqona so'zlashuv suhbatdoshlarning bir-biriga o'ziga xos tavoze ko'rsatishi, so'zlarni tanlab ishlatishi, nutqiy va nutqiy bo'lmagan muloqot odobiga rioya qilishida o'z ifodasini topadi. Bu jarayon ta'lim mazmuni va usullarini belgilash (umumta'lim maktablarining 6–7-sinflarida) hamda ta'limiy tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq barcha jarayonlar mag'ziga singib ketadi. O'quvchilarni milliy axloqiy tarbiya va milliy g'oya ruhida tarbiyalash, huquqiy hamda iqtisodiy mavzularning 2–4-, 5–9-sinflarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejarida o'qitilishiga ham alohida e'tibor bermoq lozim.

Nutqiy muloqot namunalari, ularda ko'zda tutilgan muomala odobi dialogik nutq o'stirish uchun mo'ljallanadigan mashqlar, ayniqsa, sahna elementlari (7–9-sinflarda) bilan boyitilgan o'zaro so'zlashuvlar jarayonida muloqot tarziga singdiriladi.

O'quvchilarning nutqiy muloqotini tashkil etib, uni boshqarayotgan o'qituvchi nutqiy vaziyatlar izchilligini ko'rsatib borish imkonini beradigan reja taqdim etishi lozim. Bunday reja o'quvchilarning ***turmush tajribasini hisobga olish tamoyili***ga javob berishi darkor. Nutqiy vaziyatlar ham shu tamoyil asosida tanlanadi.

Nutqiy vaziyatga asoslanganlik yondashuvida har bir so'zlashuv tartibi ma'lum nutqiy vaziyatda ishlatiladi. Masalan «Yaxshi o'tiribsizlarmi?», ya'ni qo'shni xonaga chiqib ketgan mezbon (uy egasi) qaytib mehmonlar o'tirgan xonaga kirganda shu savol bilan murojaat qiladi. «Yur, shanbalikka boramiz» mazmunidagi taklif vaziyatidagi dialog biri ikkinchisini biror tadbirga chorlash vaziyatida yuz beradi va h.k.

Keyingi davrda til o'qitish metodikasida modulli yondashuv tez-tez tilga olinadigan bo'ldi. ***Modulli yondashuv***ga ko'ra kichik mavzular katta mavzular ichiga birlashadi, oxirgi mavzu birinchi mavzu bilan bog'lanib, bir yirik mavzuga birlashib modulni tashkil qiladi. Bu modulli yondashuv deyiladi.

Xullas, uzluksiz ta'lim tizimida (2–4-, 5–9-sinflarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida) o'zbek tilidagi nutqiy muloqot madaniyatini oshirishda o'qitishining yuqorida ta'kidlanganidek har bir yondashuv hamda tamoyilining o'z o'rni, ahamiyati yuqori. Bu o'qituvchidan doimiy e'tibor va izlanishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.A.Юлдашев. Изучение падежных конструкций на уроках узбекского языка в 3-4 классах школ с русским языком обучения: дис. ... канд. пед.наук. T., 1979. C 172.
2. R.Yo'ldoshev. O'zbek tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini ularni ko'p gapirtirish orqali o'stirish metodikasi. T.: Fan va texnologiya, 2012. 216-bet.
3. R.Yo'ldoshev. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish metodikasi: Monografiya. T.: Fan va texnologiya, 2015. 160-bet.

Gulnoza TURDIYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi
Zangiota akademik litseyining oliy toifali o'qituvchisi

BADIIY ASAR TAHLILIDA O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH USULLARI

(Asqad Muxtorning "To'qqizinchi palata" hikoyasi asosida)

O'quvchilar tafakkurini o'stirish, so'z boyligini oshirish, estetik didi, ma'naviyatini yuksaltirishda badiiy asar tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Unda o'quvchining o'qilayotgan asar yuzasidan mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash hamda taqdimot qilish, kezi kelganda, o'z hayotlarida o'rganganlaridan xulosalar chiqarish malakalari shakllantiriladi.

Adabiyot fikr va qalbni tarbiyalaydi. Har bir inson hayoti davomida duch kelgan muammolarga javobni o'z tajribasidan izlaydi. Bunday hayotiy tajriba hosil bo'lishi uchun esa yaxshi kitobxon sifatida voqealar-u kechinmalarni o'z qalbidan o'tkazishi, o'zi tanlab olgan obrazning tarafdori bo'lib, uning yutuqlari, quvonchi, qayg'usi-yu mag'lubiyatini ham o'ziniki qilib olishi kerak bo'ladi.

O'quvchi o'qilgan asarning sir-asrorini tuygachgina qalbida kitobga muhabbat hissi shakllanadi, chinakam badiiyat namunasini ajrata olish malakasini egallasa,

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

Ўқув йили тугамоқда. Олдинда ёзги таътилнинг қувноқ сайёҳатлари, дам-хордиқли онлари турибди. Бу севимли иш, хобби ва режаларни амалга оширши учун ҳам яхши имконият. Айниқса, китобсеварлар учун узоқ давом этадиган таътил кунлари байрамга айланиши шубҳасиз. Мутолаа бахш этадиган ҳузур-ҳаловатга не етсин! «Одамлар китоб ўқишдан тўхтасалар, фикрлашдан тўхтайдилар», дейди мутафаккирлардан бири. Фикрлашга ундайдиган китобларни танлаб, саралаб ўқиш ҳам катта маданият. Бу ҳақда Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган журналист, «Олтин қалам» миллий мукофоти совриндори **Маҳмуд САЪДИЙ** *шундай дейди:*

КИТОБ – ЮКСАК АХЛОҚ ВА ДИД ТАРБИЯЧИСИ

– Тарбиянинг барча усуллари орасида китобнинг ўрни алоҳида. Бола ақлини таниганидан дунёни билишга, юз бераётган ҳодисаларнинг моҳиятини, сабабларини англашга интилади. У саволларига ҳар доим ҳам жавоб ололмаслиги мумкин. Шунда китоблардан жавоб излай бошлайди. Албатта, китоблар кўп. Бу ўринда китоб танлашда икки жиҳатга эътибор қаратиш лозим. Аввало, ўқувчи-талабанинг шахс сифатида камол топишига ёрдам берадиган асарларни ўқишни тавсия қилиш керак.

Инсон, одам, кимса деган сўзларни ишлатамиз. Назаримда, *инсон* сўзи энг юксаги ҳисобланади. Кимни инсон дейиш мумкин? Одамлар наздида юксак ҳисобланган тушунчаларга жавоб берадиган кишини инсон деб аташ мумкин. Бу борада китобларнинг, айниқса, бадиий юксак асарларнинг аҳамияти катта. Айтайлик, Ойбекнинг «Навоий» романини ўқиб, улуғ бобомизнинг ибратли ва ўрнакли ишлари, беғубор қалби, юксак ватанпарварлиги, доимо эзгуликка интилиши – барча-барчаси ёш китобхоннинг кўнглига ўрнашиб қолиши табиий. Чунки ёш китобхон китоб сўзини муқаддас деб билади. Унга ишонч билан қарайди. Демак, Навоийнинг ғоялари, фикр-ўйлари, аъмоллари ўқувчини мафтун этади ва қалбини эзгу туйғулар билан бойитади. Яхши китоб, биринчи навбатда, худди шу эзгу ишга хизмат қилади.

Иккинчидан, бадиий юксак асарлар инсоннинг эстетик дидини шакллантиради. Масалан, мумтоз адабиёт намуналари ўқувчи-талабанинг дунёни, одамларни, ўзлигини англашига хизмат қилиш билан бирга гўзаллик туйғусини, яъни эстетик дидни камол топтиради. Гўзаллик туйғуси юксак одам эса дунёни бошқача кўради, замондошларининг энг аввало, эзгу фазилатларига эътибор қаратади. Бинобарин, бадиий юксак асарлар одамни тарбиялайди, ҳаётда тўғри йўлни кўрсатади. Ўрни келди, айтайлик, бадиий адабиёт деганда, биринчи навбатда, ўзбек халқининг бой оғзаки ижоди назарда тутилади. Негаки, ҳозир 100 жилдлиги нашр этилаётган бу буюк миллий меросда халқимизнинг минг-минг йиллар давомида тўплаган, ҳаёт тажрибасида синаб кўрган эзгу хислатлари ўз тажассумини топган. Халқимиз томонидан яратилган эртаклар, достонларни ўқиб-ўрганган ўқувчи-талаба ана шу бой маънавий мероснинг ҳақиқий эгасига айланади. Яна, жаҳон адабиётининг энг яхши намуналарини мутолаа қилиш, ўқиб-ўрганиш ҳам фарз, ҳам қарз. Мен ўқувчи-талабаларга қуйидаги китобларни ўқишни тавсия қилган бўлардим:

1. "Авесто", Қадимги туркий битиклар, "Минг бир кеча", "Калила ва Димна", "Алпомиш", "Кунтуғмиш", "Равшанхон".

2. Юсуф Хос Ҳожибнинг "Қутадғу билик", Маҳмуд Кошғарийнинг "Девону луғотит турк", Носируддин Рабғузийнинг "Қисаси Рабғузий", Алишер Навоийнинг "Маҳбуб ул-қулуб" асари, Машраб ғазаллари;

3. Максуд Шайхзоданинг "Мирзо Улуғбек", Иззат Султоннинг "Имон", Абдурауф Фитратнинг "Абулфайзхон", Асқад Мухторнинг "Тундаликлар", Эркин Воҳидовнинг "Сўз латофати", Ахмад Аъзамнинг "Тил номуси" (она тили ҳақида) китоблари;

4. В.Шекспирнинг "Қирол Лир", "Ҳамлет" трагедиялари, Стендалнинг "Қизил ва қора" романи, Лев Толстойнинг "Ҳожимурод", "Казаклар" повестлари, Салтиков-Шчедриннинг "Бир шаҳар тарихи", И.Тургеневнинг "Оталар ва болалар", Ф.Достоевскийнинг "Жиноят ва жазо" асарлари, С.Моэмнинг "Емғир" ҳикоялар тўплами, Ф.Кафканинг "Жараён", Э.Хемингуэйнинг "Чол ва денгиз", Ч.Айтматовнинг "Оқ кема", А.Пушкиннинг "Борис Годунов", Жек Лондоннинг "Мартин Иден", Э.Ремаркнинг "Ғарбий фронтда ўзгариш йўқ", М.Шолоховнинг "Тинч Дон", М.Лермонтовнинг "Замонамиз қаҳрамони", Муҳтор Авезовнинг "Абай" (икки жилдлик), Генрих Маннинг "Содиқ фуқаро", Мипорад Павичнинг "Ҳазар луғати" асарлари.

Зукко китобхонлар мутолаа завқини тилаб қоламиз.

Н.Намозова ёзиб олди.

INDEKS 872
ISSN 2010-5584
9 772010 558000 >